



ALLOMA MUHAMMAD ZOHID IBN HASAN KAVSARIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

Qoldashev Bobomurod

Toshkent islom instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Fiqh ilmiga katta hissa qo'shgan Alloma Muhammad Zohid ibn Hasan Kavsariyning hayoti va yozgan asarlari haqida malumot berdim.

Kalit so'zlar: Muhammad Zohid ibn Hasan Kavsariy, Shayxul Islom Mustafo Sabriy, Bayniy va bayna shayx Bakr, Shayx Zaynul Obidiyn Alsuniy.

Tug'ilishlari va hayotlari. 1296-1371 hijriy, 1878-1952 melodiy Imom, Alloma Muhammad Zohid ibn Hasan Kavsariy rahimahulloh, Ahli sunna val jamaoning hanafiy mazhabi muhaqqiq olimlaridan bo'lganlar. U kishini ko'pchilik ulamolar hijriy asrning mujaddidi deya e'tirof etganlar.

Ilm olishlari

- Imom Kavsariy rahimahullohning ustozlari: otalari Hasan Kavsariy; Qur'on va hadislar hofizi Shayx Ibrohim Haqqiy Aqiniy; Shayx Zaynul Obidiyn Alsuniy; Shayx Hasan Aztuvo'; Shayx Muhammad Xolis Shirvoni rahimahumulloh va boshqa ko'plab mashhur ulamolar bo'lishgan. Shuningdek u zot usmoniylar xalifaligining oxirgi muftiysi bo'lgan Shayxul Islom Mustafo Sabriy rahimahullohning noiblari va safdosh birodarlari bo'lganlar. Imom Kavsariy rahimahulloh ilm yo'lida tinmay izlanib mehnat qilganlar va u



kishi mutaxassis bo'lmagan biror bir shariat fani qolmagan. U zot aqiyda, fiqh, usulul-fiqh va hadis ilmi bo'yicha juda ham ko'p bebaho asarlarni ummatning xotirasida yangidan tiriltirib, ularni nashr qildirganlar. Ulamolarning Imom Kavsariy rahimahulloh to'g'risida so'zlari: Shayxul Islom Mustafo Sabriy rahimahulloh aytadilar:

«Xulosa qilib, men shuni e'tirof etaman va mazkur e'tirofning fazilat va kamolot ahlini qadrlashda vojib ekani sababli, o'zinga ham buni vojib deb hisoblaymanki, do'stim Shayx Zohid Kavsariy – Alloh uni va ulamolarni Islom uchun boqiy qilsin – Islomni boshqa barcha dinlardan farqli qilib turuvchi ikki ummon - hadis va fiqh ilmlarining tengsiz g'avvosidir».

Manba: «Mavqiful aql val ilm val alim min Rabbil alamin va ibadihil mursalin» 3-jild, 33-sahifa.

Shayx Muhammad Abu Zahra rahimahulloh Imom Zohid Kavsariy rahimahullohning «Maqolat» nomli kitoblariga yozgan muqaddimalarida aytadilar:

«Ta'kidlash joizki, bu buyuk imom yangi mazhab yaratuvchilaridan emas edi va undan avval hech kim eshitmagan yangi paydo bo'lgan narsalarga da'vat ham etmasdi. Shu bilan birga bugungi kunda yangi islohotchilar deb ataladigan odamlardan ham emasdi, balki aksincha ulardan qochar edi. U zot mazhab mujtahidlari yo'liga ergashuvchilardan edi va aslo bid'atchi emasdi. Lekin, shu bilan birga, men aytamanki – u zot haqiqiy ma'nodagi mujaddid, ya'ni dinning yangilovchisi edi. Yangilash degani - bugungi kunda odamlar tushunganidek, dinga nisbatan qo'zg'olon qilish va nubuvvat ahdini buzish degani emas, balki bu o'rinda yangilash deganda din ilmlarida zoye qilingan ilmlarni qayta jonlantirish, uni ravnaq toptirish, undagi adashuvlarga barham berish va odamlarga uni sof holatida, duru-javhar kabi, aslidagidek nurli holatida bayon qilib berishdir».

• Manba: «Maqolat al-Kavsariy», 13, 14-betlar



Shayx, muhaddis Abdulloh ibn Sodiq G‘umariy rahimahulloh «Bayniy va bayna shayx Bakr» kitoblarida aytadilar:

«Shayx Bakr uchun fazilatli ustoz, muhaqqiq, Alloma, Shayx Muxammad Zohid Kavsariy rahimaxullohga nisbatan ko‘rsatgan adovati eng afsuslanarli ishlardan edi. Garchi mazhabiy tarafkashlikni yoqtirmasakda, u zotni Hanafiy mazhabini himoya qilishda biroz qattqlik qilganlar, degan bo‘lsakda, lekin biz Kavsariyning ilmi va fazliga tan beramiz. Zohid Kavsariy ko‘plab islomiy ilmlar bo‘yicha o‘z asrida tengi kam topiladigan, bilim saviyasi o‘ta chuqur, aqiydani himoya qilishda sobit qadam bo‘lganlari shubhasiz. Shu bilan birga «salafiylik» da’vosidagi (usmoniylarga xiyonat qilgan) ahli bid’atning kirlaridan pok deb hisoblaymiz. U zotning o‘z zamonasidagi ilmoyniylarga ko‘z ochirmaganlari, ahli bid’atni ilmiy salobat bilan mazasini qochirganlari, bu yo‘lda mujohada qilganlari fazilatlariga kifoya qiladi. (Aynan mana shu ilmiy salobatlari sababli xiyonati fosh bo‘lgan soxta salafiyar Zohid Kavsariy rohimahullohga keskin adovat ko‘rsatishadi)

Ilmiy meroslari:

Insonlar ichida o‘zlari kitoblar yozib, boshqa kitoblarni tahqiq qilib, bu ishlari uchun haq olmagan saodatli odamlar qancha?! U kishi biror marotaba ham ilmlari evaziga haq yemaganlar va ushbu fazilat asrimizdagi ulamolarining hech birida topilmaydi». Alloma Anvar Shox Kashmiriyning shogirdi, Shayx Muhammad Yusuf Binnuriy rahimahulloh aytadilar:

«Barcha hasadgo‘ylarni ichini kuydirgan holda, sof qalblar u zotning fazli, oliyhimmatligi, ilmlarining kengligi, zakovatiga tan beradi. Ushbu ummat barcha asrlarda bo‘lgani kabi, o‘z asridagi mumtoz, mislsiz insonlarning ilmlari haybati bilan fahrlanishdan to‘xtamaydi. Binobarin, Alloh subhanahu va taolo har bir asrni shunday odamlar bilan xoslab qo‘yadi, ularga hech kim teng kela olmaydi, ularga zarracha g‘ubor ham yuqtira olishmaydi. Unday zotlar bilan hech kim jur’at qilib bellasha olmaydi. Men shuni



ko'ryapmanki, albatta, Kavsariy ko'p asrlardan so'ng Alloh tomonidan turk musulmonlariga ato qilingan bebaho marhamatdir».

Vafotlari:

Bu zot dinini asrash maqsadida o'z yurtidan chiqib ketdilar, usmoniylarning shayxlik vakolati vazifasidan bosh tortdilar, ilmiga va diniga amal qilib, faqir, kamtarin zohid holda yashadilar. U zotga vazifalar va martabalar taklif qilishardi, lekin qabul qilmas edilar. 1296-1371 hijriy, 1878-1952 melodiy

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sharh Aqid AT- Taxoviy. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent: Hilol-nashr;
2. Aqid va unga bog'liq masalalar. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Toshkent: Hilol-nashr;
3. Sharh al-Mavoqif fi ilmul kalom Sayyid Sharif Jurjoni. tahqiq va ta'liq Dr. Ahmad Al Mahdiy.
4. Mabahisul mavjud val mahiya min kitab al-Mavaqif. Dr.Ahmad at-Toyyib
5. Sharh al-Mavoqif Sayyid Sharif Jurjoni ma'a hashiyati as-Sayalakuti va Chalabiy. Darul Kutubil I'lmiya -Bayrut.
6. Matali'ul anzor a'la matni tovoli'il anvor ma'a hoshiyati Sayyid Sharif Jurjoni" nashr: "Dorul Kutub" Bayrut
7. Al-Mabahus al-Mashriqiya fi ilmil ilahiyat vattobi'yat. Fahriddin ar-Razziy



8. Muhassal afkarul Mutaqaddimin val Mutaahhirin minal ulamai' val hukamai val mutakalimin. Faxriddin ar-Razziy nashr: Maktabatul kuliyaatil azhariyya.
9. O'rta asr Sharq allomalari ensiklopediyasi. 2016
10. Tabaqotu Hanafiyya. Alouddin Ali al-Hinnaiy. Sulaymoniya kutubxonasi, Husni Posho bo'limi, r. 844, s. 22;